



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences
Hosted online from Toronto, Canada.
Date: 5th April, 2024
ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

MAKTAB O'QUVCHILARI UCHUN MUSIQA FANINI O'QITISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISHNING NATIJAVA YILIGI

Raximboyev Jasurbek Baxtiyor o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik
fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Xalilova Maxfuza Maxamatjanovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik
fakulteti Musiqa ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi

Abdixodirova Go'zal Erali qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Umumiy
pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Toshpo'latov Jasur Baxrom o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Musiqa hayotimiz mazmuni, dillardagi sevgi muxabbatni tarannum etuvchi beqiyos go'zallik kalitidir. Musiqiy ta'lim va tarbiya usullarini takomillashtirib borilishi esa fanni o'qitilishining yuksakroq darajasini hamda asosini puxtarloq egallab olishni ta'minlashga yordam beradi. Ikkinchchi tomondan qaraganda o'qitish usullarining takomillashgan, yangi variantlarini dars jarayonida qo'llash o'qitiladigan mavzuning qiziqarli va mazmundor bo'lishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: interaktiv usullar, innovatsion pedagogik texnologiya, a'nanaviy o'qitish usullar, maktab yoshi, o'smirlilik va ijtimoiy yetuklik davri.

EFFECTIVENESS OF USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING MUSIC TO SCHOOLCHILDREN

Published online in Wiley Online Library (wileyonlinelibrary.com) at <http://onlinelibrary.wiley.com> © 2011 The Authors
 Journal compilation © 2011 Association for Child and Adolescent Mental Health.

Raximboyev Jasurbek Baxtlyor o'g'il

Chirchik State Pedagogical University, Tashkent, Republic of Uzbekistan

Faculty of Arts, Music Education, 3rd student level

Xalilova Maxfuz Maxamatjanovna

Senior teacher of the Department of Music Education,
Faculty of Arts, Chirchik State Pedagogical University

Abdixodirova Go'zal Erali qizi

Teacher of the Department of General

Pedagogy of Chirchik State Pedagogical University

Toshpo'latov Jasur Baxrom o'g'li

Chirchik State Pedagogical University,

Faculty of Arts, Music Education, 3rd student level

Annotation:

Music is the meaning of our lives, the key to the incomparable beauty that sings of love in the hearts. Improving the methods of music education and upbringing will help to ensure a higher level and a better understanding of the basics of science teaching. On the other hand, the use of improved, new teaching methods in the classroom makes the subject interesting and meaningful.

Keywords: interactive methods, innovative pedagogical technology, traditional teaching methods, school age, adolescence and social maturity.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish asosida o’qitish samaradorligini oshirish davr talabi sifatida barcha pedagog o’qituvchilar qatorida musiqa o’qituvchisining ham zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Har qanday fanni, shu jumladan musiqa madaniyati darslarini o’qitish jarayonida ham faollashtirilgan, o’quvchilarni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil fikrllovchi,



mushohada qiluvchi,o'z fikrlarini bildira oluvchi shaxs sifatida namoyon qilishi 9 uchun imkoniyat yaratuvchi-bu o'qituvchidir. O'qituvchi o'zi va o'quvchilar uchun qulay va qiziqarli bo'lgan o'qitish usullari, yo'llari, shakllari, vositalari bilan birgalikda ulardan foydalanish shart-sharoitlarini belgilaydi, ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida o'quv jarayonisamaradorligini oshirishga harakat qiladi. Shu boisdan ham innovatsion pedagogik texnologiya, ta'lif texnologiyalariga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda. Ulardan bugungi kunda jahon pedagogikasi amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Interaktiv usullar orqali o'qitish va muloqotli ta'lif berish, standart o'qitishning resursi bo'lib hisoblanadi. Kichik guruhlarda o'qitish va ishlash usulini qo'llash natijasida o'qitish jarayonini jaddalashtirish mumkin, ya'ni rivojlanish potensialini yuqori darajaga ko'tarish, mashg'ulot mazmunini chuqur va keng miqyosida o'zlashtirishga sharoit yaratadi. Faol o'qitish usullardan hammasi xam interaktiv usullariga kirmaydi. Interaktiv o'qitish usullari deganimizda, avvalo, o'quvchilar orasida mavzuni o'rganish va o'zlashtirish usuli o'zaro muloqot va o'qitish jarayonini psixologik mexanizm nuqtasidan kuchaytiradiganlarni tushunish zarur. Bular orasida

birinchi navbatda kichik guruhlarda ishlash misol bo'ladi. Kichik guruxlarda ishlash usullarini bugungi kunda o'qitish jarayonida kam qo'llanilishining sabablari ko'p bo'lib, ular orasida eski rusumli, ya'ni tushuntirish, demonstratsion va illustrasiya qilish usullari ustin bo'lib saqlanishi va yangi, innovatsion, muloqotga asoslangan o'qitish usullariga ishonch bo'limganligi bo'lib hisoblanadi. Bundan tashkari, interaktiv o'qitish usullarini o'qituvchilarning o'zлari ham bilmasligi, metodik tayyoragarlik yetishmovchiligi bu usullarning keng tarqamasligining sababi bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining taraqqiyoti va istiqbolini ta'minlash iqtisodiy, ijtimoiy,

siyosiy va madaniy sohalarda bo'layotgan o'zgarishlarga bog'liq bo'lib, bunday o'zgarishlarda faol ishtirok etish uchun kasbiy soha egalaridan yuqori darajadagi umumiy va maxsus bilimlar, intelektual salohiyat, keng dunyoqarash va axborot kommunikatsiyalaridan ustalik bilan foydalanish malakalariga ega bo'lishlik talab etiladi. Ana shu talablar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev



ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimiz, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanib borishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi,

taqdiri, bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali, ongli mutaxasis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz". Shuning uchun ham "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" maqsad va vazifalarini amalgam oshirishning birinchi bosqichida "Pedagog va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malskasini

oshirishni zamon talablariga javob berdigan darajada tashkil etish" belgilangan. Interaktiv o'qitish usullarning asosiy mohiyati shundan iboratki, dars jarayonida jalg qilingan barcha o'quvchilar o'qishda o'zlarining bilim va fikrlarini tushunishi va muhokama kilish orkali o'zlashtirishi bo'lib hisoblanadi. Asosiy talablardan biri – birdamlik, qo'shma fikrlash bo'lib hamda o'quv dasturini o'rganish jarayonida o'quvchilar orasida qo'shma faoliyat o'tkazilib, xar bir o'quvchi o'zining fikri, yangilik, bilim almashish va muammoni yechimini taklif qilish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Maktablardada interaktiv rejimida o'qitish jarayonini qo'llash asosiy masalalari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- musiqa fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarlarning qiziqishini ko'tarish;
- o'qitish jarayonini o'qituvchi faoliyati hayot real sharoitlariga yaqinlashtirish;
- samarali kommunikatsiya usullari, ya'ni o'qituvchi-o'quvchi va o'zaro, muloqot ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish;
- yangi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonini yangi darajaga ko'tarish;
- ta'lim olish jarayoniga o'quvchilarning ma'suliyatini oshirish.

Interaktiv usullarni qo'llashda o'quvchi sinfda dars jarayonini o'zlashtirish asosiy a'zosi bo'ladi va uning fundamental bilimi o'qitish o'chog'ining asosi bo'lib hisoblanadi. O'qituvchi o'z navbatida o'quvchilarga yangi, tayyor bilim bermaydi, aksariyat o'quvchilar orasida mustaqil ravishda izlanish va fikrlash jarayonini rivojlantirish orqali o'zlashtirishni oshiradi.

A'nnaviy o'qitish usullardan interaktiv usullarning farqi – o'qituvchi va



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th April, 2024

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

o'quvchi orasidagi to'qnashish jarayonini o'zgartiradi: o'quvchi faolligi o'qituvchining faolligidan ustunlashadi, o'z navbatida o'qituvchining asosiy maqsadi

bo'lib, o'quvchilarning initsiativ fikrlash jarayoniga yuqori darajali sharoit yaratib berish bo'ladi. O'qituvchi asosan dars jarayonini tashkillashtirish umumiylasalalari,

oldindan tayyorlangan kerak bo'lgan topshiriqlarni tayyorlash, o'quvchilar orasida muloqot uchun savol va mavzularni shakllantirish, konsultatsiya berish, vaqt meyyorini va reja boskichlarini amalga oshirish jarayonini nazorat kiladi.

Interaktiv usullar:

- o'quvchilarda qiziqishni oshiradi;
- bir vaqt ni o'zida gurux barcha o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qiladi;
- xar bir o'qish materiallarini qo'llash natijasini oshiradi;
- o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini faol o'zlashtirish samaradorligini oshiradi;
- qaytarma bog'liqligini ta'minlaydi;
- o'quvchilar orasida mustaqil fikr va bilimiga nisbatini shakllantiradi va oshiradi;
- amaliy ko'nikmalarini jadallashtiradi;
- shaxslararo muloqot ko'nikmalarini yaxshilaydi;
- xulq-atvorini o'zgarishiga olib keladi.

Qo'shiqlarni o'rghanishda interaktiv usullardan foydalanish Insonning yoshiga xos umumiylasalalari o'rghanish bilan psixologiyaning maxsus sohasi - yosh psixologiyasi shug'ullanadi. Eng umumiylasalalari maktab yoshi, o'smirlik va ijtimoiy yetuklik davri kabi yosh bosqichlari ajratiladi. Shu asosda quyidagi yosh davrlarini va ularga muvofiq ta'lim-tarbiya muassasalarini ko'rsatish mumkin:

Shaxsning musiqiy rivojlanishi, tarbiyasi va shakillanishi musiqiy pedagogikasining umumiylasalalari bo'limi bosh mavzulari xisoblanadi. Insonning musiqiy rivojlanishi uning musiqiy qobiliyatlarini va musiqa madaniyatining bir butun tashkil topishi va shakillanishi jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Musiqiy rivojlanish bu shaxs musiqa

madaniyatining jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishdagi tug'ma va o'zlashtirilgan, miqdor va sifat o'zgarishlarining xar tomonlama takomillashuvi.



Inson o‘zining musiqiy rivojlanishida qator yosh bosqichlardan o‘tadi. “Interfaol usullar” haqida Interfaol usuli hamkorlikda faoliyat olib borish ma’nosini anglatadi.

- “Doira” usuli
- “Akvarium” usuli
- “Muzyorar” usuli
- “Mozaika”
- “Tarmoqlar” (Klaster)
- “Suratli diktant”
- “Zanjir”
- “Enerjayzerlar”

Ularni dars mashg’ulotlari jarayonlarida qo‘llashni sizga tavsiya etamiz.

“Doira” usuli

Bunda o‘quvchilar doira shaklida o‘tirib, turli Mashqlarni bajaradilar. Bu usulning o‘quvchilarni qator qilib o‘tkazish usulidan qulay tomoni shundaki, hech bir

o‘quvchi o‘zini ajratilganligini, ya’ni kimdir orqada, kimdir oldinda ekanligini 16 sezmaydi. Har bir o‘quvchi tarbiyachi nazari va e’tiboridan chetlanib qolmaydi. Hamma o‘zini “teng” his qiladi.

“Akvarium” usuli

Bu usulda bir nechta o‘quvchi doira ichida turli vazifalarni bajarishadi.

O‘rtadagi bu o‘quvchilar “Akvarium” ichidagi baliqchalar kabitdir. Ularning har bir harakati doira atrofida o‘tirgan o‘quvchilar tomonidan Aniq kuzatib boriladi.

“Muzyorarlar” usuli

Maqsad: Ishtirokchilarni o‘zaro tanishuvlari uchun erkin muhitni yaratish.

“Muzyorarlar” boshqacha tanishuvlar deb ataladi. Bu mashg’ulot qisqacha qilib aytganda, o‘quvchilarning o‘zlarini tutishlariga, bir-birlari bilan tanishishiga va guruhda o‘zaro ishonch muhitini yaratishga ko‘maklashadi. Ularni ishtirok etishga va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga dav’at etadi. Ta’lim jarayonida biz bunday mashqlarning

yangi turlarini yaratishimiz mumkin.

Musiqa mashg’ulotlarini tashkil etish metodikasi bu ta’limning kompetensiyaviy yondashuviga asoslangan davr talablaridir.



Musiqa darslarini rejalashtirar ekan, pedagog o‘quvchilarning o‘rgatiladigan repertuar va faoliyat turlarini ketma – ketligini to‘g‘ri tuzishi kerak. Har bir musiqa rahbari xar bir musiqa mashg‘ulotini qiziqarli va o‘quvchilar xotirasida uzoq saqlanishi uchun ko‘rgazmalardan unumli foydalanishni bilishi zarur darsni tashkillashda musiqa rahbari quyidagilarni yoddan chiqarmasligi kerak:

- mashg‘ulot bayoni, yangi qo‘sish, foydalaniladigan cholg‘u asboblari uchun tayyorlangan ko‘rgazmalar;
- qismlarni bir-biriga uzviy bog‘lay olish;
- o‘quvchilarni qiziqtirish uchun ularning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda sodda va past ohangda muloqatda bo‘lish;
- texnika vositalaridan foydalana olish; - musiqiy ta’limiy va didaktik o‘yinlar yordamida o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlab borish; Darsni rejalashtirishda quyidagilarga e’tibor berishi kerak:
- Musiqa tinglashda rasmlardan, bastakor va kompazitor portretlaridan, xilma-xil rangdagi shakllardan foydalanish;
- Ovoz diapozonini kengaytirish mashqlarida musiqali zinacha ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallardan foydalanish;
- Qo‘sish kuylaganda rasmlarga qarab qo‘sish nomini topish;
- Laparlar va raqslarni ijro etganda atributlar (gullar, lentalar, v.b.) foydalanish;
- Bolalarni ijodiy kobiliyatini rivojlantirishda musiqali harakatli va obrazli o‘yinlarni o‘rgatilganda shu o‘yinga mos atributlarni tayyorlab fikrlashga o‘rgatish, sahnalashtirilgan jarayonda bolalarni mustaqil harakat qilishlariga imkon yaratadi va katta o‘rin egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich o‘quvchilari milliy musiqa vositasida musiqaga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiribgina qolmay, Vatanga,xalqqa,san’atga madaniyatga, o‘z xalqi va o‘zga xalqlar tarixiga hurmat e’tiborini oshiradi. Shu asosda mustahkam vatanparvarlik tuyg‘ulari hamda o‘quvchining e’tiqodi uning axloqiy-estetik fazilatlarining ijobiy shakllanishi va rivojlanishining omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzviylashtirilgan Davlat Ta’lim Standarti va o‘quv dasturi. Musiqa.

Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th April, 2024

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

2. Toshkent, 2010 – yil. Nurmatov H, Norxo‘jaev N. Musiqa alifbosi. 1 – sinf uchun darslik.
3. Toshkent, G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2011 – yil.
4. Nurmatov H, Norxo‘jaev N. Musiqa. 2 – sinf uchun darslik. G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2010 – yil.
5. Nurmatov H, Norxo‘jaev N. Musiqa. 3 – sinf uchun darslik. G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2008 – yil.
6. Ibrohimov O. Musiqa. 4 – sinf uchun darslik. – Toshkent, G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2009 – yil
7. Soipova D. Musiqiy va musiqiy – nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. – Toshkent, 2005 – yil.